

## ILK YUBILEY MUNOSABATI BILAN CHOP ETILGAN “MUHOKAMAT UL-LUG ‘ATAYN” NASHRI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-424-426>

*Duskarayeva Surayyo Nartaylakovna*  
*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*  
*tayanch doktoranti*  
*tel: 90 032- 98- 22*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada “Muhokamat ul-lug‘atayn” ni Navoiyning 500 yillik yubeleyi munosabati bilan amalga oshirilgan bir nashri manbashunoslik va matnshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Shuningdek, nashr tarixi hamda uning o‘zbek navoiyshunosligi taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati haqida mulohaza yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *matn, nashr, ma’naviy meros, chig‘atoy turk, tanlangan asarlar, sovet davri.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируется публикация «Мухокамат уль-лугатайн» по случаю 500-летия Навоийского движения с точки зрения источниковедческих и текстологических исследований. Также рассматривается история издания, его роль и значение в развитии узбекских исследований Навоийского движения.*

**Ключевые слова:** *Текст, издание, духовное наследие, чигатайский турок, избранные произведения, советский период.*

**Annotation:** *This article analyzes the publication of "Muhokamat ul-lughatayn" on the occasion of Navoi's 500th anniversary from the perspective of source and textual studies. It also discusses the history of the publication and its role and significance in the development of Uzbek Navoi studies.*

**Keywords:** *text, edition, spiritual heritage, Chigatay Turk, selected works, Soviet period.*

### KIRISH.

XX asr boshlarida Turkiston Muxtor jumhuriyati xalqning saviya va salohiyatini oshirish maqsadida, o‘lkamizning ma’naviy hamda adabiy merosini o‘rganib, yig‘ib, ommaga yetkazish borasida bir qancha qarorlar qabul qilib, ularni amalga oshirish borasida ham jiddiy rejalarni tuzgan edi. Shunday xayirli ishlardan biri: “1925 йилнинг 11 июлида Ўлка мусулмон бюроси хузуридаги ўзбекшунослик қўмитаси “Алишер Навоийнинг 500 йиллик юбилейига тайёргарлик ишларини бошлаш ҳақида” қарор қабул қилган....унга биноан:

“а) Алишер Навоийнинг 500 йиллик юбилейини ўтказиш мақсадга мувофиқ деб топилсин;

б) Алишер Навоийнинг назм ва насрда ёзилган асарларидан ташкил топган тўплам тузилсин;

в) Алишер Навоий асарларининг асл нусхалари (оригинали) ҳозирги ўзбек тилига таржималари билан бирга нашр қилинсин;

г) тадқиқотлар ва намуналар тўпламининг ҳар бири 5 босма табоқдан белгилансин....”<sup>1</sup> singari vazifalarni kun tartibiga qo‘yilgan.

Аynи shu qarorga binoan buyuk shoirning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarini nashrga tayyorlashni professor olim Abdurauf Fitrat o‘z qo‘liga oldi. U 1928 yilda o‘zbek adabiyotini bir meyorda tadqiq etib, o‘zining “O‘zbek adabiyoti namunalari” kitobining 1-jildini bosib chiqardi. O‘sha davrda joriy yozuv arab yozuvi (1929 yil 1 dekabrda arab yozuvidan lotin yozuviga o‘tilgan) bo‘lganligi bois nashr ham arab alifbosida chiqqan. 2013 yilga kelib mazkur manbani Orzigul Hamrayeva hamda ma’sul muharrir filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Boltaboyev qayta nashrga ilk marotaba o‘zbek kirill yozuviga chop ettirdi. Va o‘z navbatida ushbu nashr № 821.512.133 inventar raqami ostida Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonasida saqlanadi. Umumiy 292 sahifa bo‘lib, Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari 139 betdan boshlangan. Lekin asar to‘liq holda emas, ayrim parchalar berilgan. Aniqroq qilib aytsak, asosiy urg‘u 100 ta fe‘lga va ayrim so‘zlarning leksemasiga qaratilgan. Asar boshlanishidagi hamd va nat, shuningdek payg‘ambarimizga salovatlarning berilmasligi, Chor hukumatining islomiy manbalarga qat’iy taqiq qo‘yganligi sababdir. Shunday bo‘lsada ushbu majmua ilk manbalardan biri bo‘lib, manbashunoslik va matnshunoslik nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘z qiymatini yo‘qotmagan.

Matnga kelsak, “Андоқ маълум бўлурки, турк сартдин тез фаҳмроқ ва баланд идрокроқ ва хилқати софроқ ва покроқ махлуқ бўлубтур....” jumlası bilan boshlanib, “Ва кўнгулга андоқ эврүлдиким, гўё бу тиканлар сарзаниши<sup>15</sup> зараридин назм хили гулдаста бандлари<sup>16</sup> бу гулшандин базм тузгуча гул иликлай олмай йўл тутуптурлар.” jumlası bilan yakunlangan. Oxirida qo‘shimcha sifatida Navoiy risolada 100 ta fe‘lni misol qilib olgan bo‘lsada, Parij va Qo‘qon toshbosmasida 99 ta fe‘l kelganini aytib o‘tgan. Bundan ko‘rinadiki Fitrat o‘sha qo‘lyozma va toshbosmani ko‘rib, o‘rganib qiyosiy tahlil qilgan. Shuning natijasida 99 ta fe‘lga izoh va sharh keltirgan. Bundan tashqari fe‘llarni chog ‘ishtirish vaqtida Bog‘chasaroy hamda Vomiriy bilan Shayx Sulaymon lug‘atlariga murojaat qilgan. Masalan: “1. Қувармоқ: турлича тусда кўринмак, Шайх Сулаймоннинг “Луғати чиғатой”да қувадмоқ ёзилган, босмахона янглишидир.”<sup>2</sup>

Biz ham qiziqib, qiyoslash maqsadida “Alisher Navoiy asarlari izohli lug‘ati”ni ko‘rib chiqqanimizda quvarmaq – qurimoq, so‘limoq ma’nolari berilgan. (350 b) Keyingi misol: “4. Жижчаймоқ: англашилмади. Вомирий ҳам Шайх Сулаймон луғатларида қаттиғ қулмак маъносида “жиржаймоқ” сўзи бор. Балким бунинг ҳам тўғриси шудир.”<sup>3</sup> Biz Fotix bilan Anqara qo‘lyozmasini ochib ko‘rganimizda “jiyujaumaq” varianti berilib, “Alisher Navoiy asarlari izohli lug‘ati”da ham shu

<sup>1</sup> Ҳамидулла БОЛТАБОЕВ. АЛИШЕР НАВОИЙНИНГ ИЛК ЮБИЛЕЙИ (XX аср бошлари: юбилейга тараддуд). Истиклол даври ўзбек навоийшунослиги. “TAMADDUN”. ТОШКЕНТ-2021., 119-б.

<sup>2</sup> Фитрат. Ўзбек адабиёт намуналари. Тошкент. “MUMTOZ SO‘Z”. 2013., 148-б.

<sup>3</sup> Фитрат. Ўзбек адабиёт намуналари. Тошкент. “MUMTOZ SO‘Z”. 2013., 148-б.

fe’lining “qovjiramoq” (88 b) ma’nosi izohlanganiga amin bo’ldik. Bundan ko‘rinadiki, bu borada qancha qiyosiy-tipologik, chog‘ishtirma tahlil tadqiqotlar olib borilsa ham kam. Endilikda ularga tayanib turib o’sha davrdagi manbashunoslik va matnshunoslikning o‘ziga xos xususiyatlari, yetakchi tamoyillari va munosib natijalari haqida batafsil fikr yuritish va tegishli xulosalar chiqarish imkonlari paydo bo‘lganini alohida uqtirish bizning burchimizdir.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi majmua Alisher Navoiy asarlarini o‘rganish va uni keng xalq ommasiga yetkazish yo‘lidagi ilk izlanishlarning munosib samarasi bo‘ldi. Ushbu nashr mutafakkir adibning boy ijodiy merosi haqidagi mavjud tasavvurlarni kengaytirishi bilan ham e’tiborga molik bo‘lgan. U XX asrning o’sha davridagi ilk muborak qadam sifatida yuzaga keldi. Ikkinchi tomondan esa, Mazkur majmuaning nashr etilishi ilmiy soha uchun ham katta ahamiyatga ega. Uning keying nashrlar uchun tayanch manbaga aylangani diqqatga sazovordir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Алишер Навоий. Муҳокамату-л-луғатайн Қосимжон Содиков таҳлили, табдили ва талқини остида. – Тошкент, “Akademnashr”, 2017.
2. Алишер навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн олтинчи том. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти. Тошкент – 2000.
3. Алишер Навоий. Муҳокамату-л-луғатайн. Илмий-танқидий матн. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Юсуф Турсунов. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти давлат корхонаси. Тошкент – 2021.
4. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarining Fotih qo‘lyozma nusxasi faksimilyasi.
5. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarining Anqara qo‘lyozma nusxasi faksimilyasi.
6. Фитрат. Ўзбек адабиёт намуналари. Тошкент. “MUMTOZ SO‘Z”. 2013
7. Ҳамидулла Болтабоев. Алишер навоийнинг илк юбилеи (XX аср бошлари: юбилейга тараддуд). Истиклол даври ўзбек навоийшунослиги. “TAMADDUN” . Тошкент-2021.